

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI VATAN KONSEPTIGA OID MAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI

Masadiqova Xilola Baxromovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi **vatan (homeland)** konseptiga oid maqollar chog'ishtirma-lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda vatan konseptining semantik maydoni, baholovchanlik xususiyatlari, metaforik modellar va milliy mentalitet bilan bog'liqligi aniqlanadi. Ingliz maqollarida vatan tushunchasining asosan home obrazi orqali individual-psixologik qadriyat sifatida namoyon bo'lishi, o'zbek maqollarida esa uning muqaddas, jamoaviy va axloqiy burch bilan bog'liq konsept sifatida talqin qilinishi misollar asosida yoritiladi.

Abstract. This scientific article analysis proverbs related to the concept of homeland in English and Uzbek languages are analyzed from a cross-linguistic-cultural point of view. In the study, the semantic field of the concept of the homeland, its evaluative properties, metaphorical models and the connection with the national mentality are determined. In English proverbs, the concept of homeland is manifested mainly through the image of home as an individual-psychological value, and in Uzbek proverbs, it is interpreted as a concept related to sacred, collective and moral duty.

Kalit so'zlar: vatan konsepti, paremiologiya, lingvokulturologiya, maqol, chog'ishtirma tahlil, mentalitet.

Key words: concept of homeland, paremiology, linguocultural science, proverb, cross analysis, mentality.

Bizga ma'lumki, konsept madaniyatshunoslik, lingvistika, falsafa, kognitologiya va boshqa aspektlarda o'rganilmoqda, provardida turli metodlar, tasniflar, olimlar tomonidan taklif etilmoqda. Konsept lingvokulturologiya va kognitologiyaning asosini tashkil qiladi. Kognitiv tilshunoslikda konsept o'z maqomiga ega ekanligiga qaramay, bu muammo o'z yechimini haligacha topgan deb, ta'kidlash hanuzgacha munozarali bo'lib qolmoqda.

Bir ming to'qqiz yuz yigirma sakkizinchi yili birinchilardan bo'lib, tadqiqotchi S.A.Askoldov o'zining "Концепт и Слово" maqolasida kognitiv lingvistika muammolarining biri sifatida konsept so'ziga ta'rif beriladi. Uning izohlashicha, "konsept – fikrlash jarayonida bizga ayni bir turdagi ko'pdan-ko'p predmetlarning o'rnini bosadigan fikr va tasavvurning hosilasidir"¹.

¹ Аскольдов С.А. Цит.по: З.И. Журавлёва. Концепт в лингвокультурологии // II Международная научная конференция «Язык и культура». – М.: Институт иностранных языков, 2003. – С. 261-262.

Ingliz tilining mashhur "Oxford Advanced Learners Dictionary of Current English lug'ati" da general notion deya izoh, ta'rif keltiriladi. Bunda konsept andazaga, stereotipga, umumqabul qilingan fikr, nuqtai nazarga yaqin turadi.

Konsept tushunchasining mazmu-mohiyatini yaqindan anglash uchun lingvistikada mazkur til birligiga berilgan ayrim ta'rif va tasniflar hamda shu doirada tadqiq etilgan ilmiy tadqiqotlarni tahliliga e'tiborimizni qaratamiz:

Tilshunos V.I.Karasik qayd etishicha, konsept va olam manzarasini anglashda lingvomadaniy yo'nalish maqsadga muvofiq, chunki konsept madaniyatning asosiy birligidir². Bu o'rinda tadqiqotchi konseptni madaniy birlikning asosiy birligi sifatida izohlagan. Darxaqiqat, konseptning lingvomadaniy izohini quyidagicha bayon etish mumkin: **inson ongidagi madaniyat "quyqasi"; olamning milliy manzarasi obrazi; til + tafakkur + madaniyat birligi; qiymat + baho.**

Nemis faylasufi G.Rikkert fikriga ko'ra, fan madaniyatni tabiat belgilaridan farqlamoqchi bo'lsa, avvalambor, qadriyatlar tamoyiliga asoslanishi kerak³.

Ye.S.Kubryakova konseptning tilda ifodalanishini e'tirof etgan holda uni bevosita xotira bilan bog'laydi va xotira birligi sifatida ta'riflaydi: "Konsept – xotiraning faol birligi, mental so'z boyligi, konseptual tizimlar va miya tili, olamning jami manzaralari. Eng muhim konseptlar tilda ifodalangan⁴".

Bizning fikrimizcha, konsept – bilimni aks ettiradigan ma'lumotlarni izohlash uchun xizmat qiluvchi birlik bo'lib, ruhiyatida aks etgan olam manzarasining konseptual tizimi, ya'ni shaxsning dunyo obyektlariga oid tasavvurlari, qarashlari, o'ylari, taxminlari, bilimlar kabilar haqidagi ma'lumotlar majmuasidir. Shu bilan birga, kognitiv tilshunoslikda muhim hisoblangan konseptosfera atamasi – bu milliy konseptlarning jamlanmasi ma'nosini bildiradi.

Rus tadqiqotchisi L.V.Adonina konsept atamasiga bag'ishlangan maqolasida bu terminning taniqli tilshunoslar tomonidan qayd etilgan o'n ikkita izohini keltiradi. Shu bilan birga, uning ilmiy ma'lumotiga ko'ra, konsept termini o'z nuqtai nazardan tasnif qilingan. Masalan, konsept standartlashishiga ko'ra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy konseptlarga; qo'llanishiga ko'ra ilmiy, badiiy, maishiy konseptlarga; ifodalanishiga ko'ra leksik-frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy konseptlarga ajratiladi⁵.

Fikrimizcha, xalq maqollari va frazeologik birliklarni ma'lum konseptlarga ajratib tadqiq qilish orqali o'sha xalqning maqollaridan tilida namoyon bo'ladigan lingvomadaniyatini kichik bo'g'inlarini ham ochib berish imkoniyati keng bo'ladi.

² Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. 2-е изд. – М.: Гнозис, 2004. – С.96

³ Риккерт Г. Науки о природе и науки о культуре: Пер. с нем./Общ. Ред. И предилс. А.Ф. Зотова – М.: Наука, 1998. – С. 32.

⁴ Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М., 1996. – С.90-92.

⁵ http://rtsu.slavist.t/index.php?option=com_content&view=article&id=149&Itemid=80

V.Kroft va D.Kruzlarning fikricha, soʻz maʼnosi faqat semantikada tugʻilmaydi va shakllanmaydi, balki soʻz maʼnosi konseptual darajada oʻzining kognitiv tuzilish asosiga ega⁶.

M.Jonson, J.Lakofflar fanda tilning aynan konseptlar koʻlami olam lisoniy manzarasining xossalarini ochib beradi: konseptlar – jamoaviy ongda koʻp mezonli maʼnoviy shakllanishlar boʻlib, oʻzining lisoniy qobigʻiga ega ekanligini taʼkidlaydi⁷. Demak, milliy konseptosferada milliy mentalitet, millatning fan va madaniyati umumiy koʻrinishda aks etadi. Til esa madaniy konseptosferaning ajralmas boʻlagi sanaladi.

N. Nasrullayevaning “Ingliz tili frazeologik birliklar semantikasidagi gender konsepsiyasi” nomli tadqiqotida ingliz tilining gender belgisi frazeologik birliklar semantikasining konseptuallashtirish jarayoni nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, “Erkak va ayol” konsepti yadrosiga kiruvchi maqomi, mehnat faoliyati, oilaviy ahvoli kabi unsurlari belgilangan⁸.

D.A.Tosheva esa keyingi davrlarda oʻzbek tilshunosligida semantik aloqadorlikni hosil qiluvchi birliklarni konsept asosida tadqiq etish keng yoyilganini qayd etib, oʻzining “Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari” nomli tadqiqotida, tilda madaniyatning voqelanishi, aks etishi muayyan nutqiy vaziyatda namoyon boʻladi. Har qanday muloqot makon va zamonni, soʻzlovchi dunyoqarashi va individual xususiyatlarni ifoda etadi. Lingvokulturologiya fanining tadqiq manbai madaniyat elementlarini aks ettirgan lisoniy birliklardan iborat boʻlib, ularning har biri oʻziga xos urf-odat, anʼana, qadriyat, dunyoqarash hamda milliy madaniy qonuniyatlarni turli darajada ifoda etadi deb, mazkur birliklar qatoriga maqollarni, muayyan mazmunli maydon doirasida shakllanib, milliy va madaniy qarashlar asosida vujudga kelgan birliklarni kiritish mumkin⁹ deb, taʼkidladan. Demak, lingvokulʼturologik tadqiqotlarda konseptning ifodalanish muammolariga katta eʼtibor berilmoqda. Oʻtgan davrdagi imiy tadqiqotlarning koʻp qismida u yoki bu tilda konsept bilan bogʻliq masalalar tahlil qilingan.

Qayd etish joizi, Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi muhim nazariy birliklardan biri boʻlib, u til, tafakkur va madaniyat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni ochib berishga xizmat qiladi. V. A. Maslova taʼkidlaganidek, konseptlar xalqning tarixiy tajribasi va madaniy xotirasini mujassamlashtirgan kognitiv birliklardir (Maslova,

⁶ Croft W. and D. Alan Cruse. Cognitive Linguistics. – New York: Published in the United States of America by Cambridge University Press, 2004 – P. 30.

⁷ George Lakoff and Mark Johnson. Metaphors we live by. – London: The university of Chicago press, 2003. – P.38

⁸ Nasrullaeva H. 3. Ingliz tili frazeologik birliklar semantikasidagi gender konsepsiyasi. Filologiya fanlari doktorlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2016. – 230 b.

⁹ Тошева Д.А Зооним компоненти мақолларнинг лингвокультуролик хусусиятлари: Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. Тошкент, 2017. – 151 б

2001). Shu nuqtayi nazardan, **vatan konsepti** har bir xalq madaniyatida markaziy o'rin egallaydi.

Maqollar esa milliy dunyoqarashning ixcham, obrazli va baholovchan ifodasi bo'lib, ularda asosiy madaniy konseptlar yaqqol aks etadi. G. Lakoff va M. Johnson metafora nazariyasida ta'kidlaganidek, inson abstrakt tushunchalarni ko'pincha kundalik tajribaga tayangan holda obrazlar orqali anglaydi (Lakoff & Johnson, 1980). Vatan konsepti ham ko'plab maqollarda metaforik vositalar yordamida ifodalanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi vatan konseptiga oid maqollarni chog'ishtirma tahlil qilish orqali ularning umumiy va milliy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Ingliz tilidagi maqollarda vatan konsepti ko'pincha home leksik birligi orqali ifodalanadi. Bu hol ingliz madaniyatida vatanning shaxsiy hayot makoni, osoyishtalik va xavfsizlik ramzi sifatida talqin qilinishini ko'rsatadi:

Ingliz madaniyatida vatan tushunchasi "mamlakat"dan ko'ra "uy" tushunchasiga biroz torayishi bilan ajralib turadi va birinchi navbatda uy va oilasini himoya qilish muhim hisoblanadi: An Englishman's home is his castle.

Vatan dunyodagi eng yaxshi joy va u noqulay tabiiy hodisalardan panohtopadigan va ko'ngil notinchligi, dilxiraligidan xolos bo'ladigan uy sifatida qabul qilinadi: East or West, home is best; There is no place like home; Every bird likes its own nest.

Ingliz paremiologiyasida vatanga talpinish hissini "The wider we roam, the welcomer home" maqolida ifodalanganini ko'rish mumkin. Vatanga tortish ongsiz ravishda yuzaga keladigan ingliz maqolining qisman ekvivalenti xalqlarning til an'analarning notekis rivojlanishi va vaziyatga turlicha qarash bilan izohlanishi mumkin.

Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usini o'zbek xalqi milliy xarakterining ajralmas xususiyati bo'lib, bu muhabbat tilda emotsional tarzda namoyon bo'ladi.

Vatanga bo'lgan muhabbat barcha xalqlarning olamni bilish lisoniy manzarasida aks etadi. Biroq bu hodisani tasvirlash yo'llari turli xalqlarda farqlanadi.

Inson o'z vatanini qadrlashi, uning ahamiyati va qo'llab-quvvatlashini anglashi, uning zaminiga bo'lgan muhabbatidan dalolat beradi: Qush ham ketsa keladi, O'z elini sevadi; Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni.

Misollardan ko'rinib turibdiki, Vatan inson uchun hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan tuyg'u, u o'z-o'zidan sevilishga va qadrlanishga loyiqdir. Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usini ifodalashda Vatanni ona surati bilan aniqlash, tuprog' bilan bog'lash o'zbek tili paremiyalarida o'z aksini topgan: Ona yurtning – oltin beshiging; Ona yerning tuprog'i – ona sutidan aziz; Yerni sevmagan o'zini sevmas; Yerga mehr – elga mehr.

Vatanning ona bilan taqqoslanishi bejiz emas, o'zbek xalqi uchun naslning davomiyligi ona bilan bog'liq, ona bolasini chin dildan sevadi va unga xiyonat qila olmaydi. Vatan o'zbek xalqi uchun nafaqat ona deb qabul qilinadi, balki muqaddas joy deb ham qabul qilinadi va bir hovuch tuprog'ini muqaddas deb bilish, ko'zga to'tiyodek surtish ham farz, ham qarz hisoblanadi: Qush butaga sig'inar, Odam – Vatanga.

Vatanga muhabbatning ajralmas belgisi shundaki, inson uni himoya qilish, dushmanlardan asrashga tayyor. Har bir millat vatanparvarlik xususiyatiga ega, ammo tarixiy omillarga bog'liq holda har bir millatning vatanparvarlik darajasi o'ziga xosdir. Bu quyidagi misollarda aks ettirilgan: Dushmanga nafrati bo'lmaganing Vatanga muhabbati bo'lmas; Vatan uchun o'lmoq ham sharaf; Er yigit o'zi uchun tug'ilar, eli uchun o'lar; Mardni el sevar, Nomardni kim sevar.

Ona yurt shunday bir joyki inson butun umri davomida unga talpinib yashaydi va Vatanni sevish hissi insonda tug'ma bo'ladi: Tuqqan elga jon tortmasa qon tortadi; Tug'ilgan yerdan ko'ngil uzilmas, yurt qo'riganning yurti buzilmas.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillaridagi vatan konseptiga oid maqollar umumiy insoniy qadriyatni ifodalashiga qaramay, ularning semantik va lingvokulturologik talqini milliy mentalitet bilan belgilanadi. Ingliz tilida vatan asosan shaxsiy makon sifatida talqin qilinsa, o'zbek tilida u muqaddas, ajdodlar merosi va ijtimoiy burch bilan bog'langan konsept sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu natijalar qiyosiy tilshunoslik va madaniyatlararo tadqiqotlar uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аскольдов С.А. Цит.по: З.И. Журавлёва. Концепт в лингвокультурологии // II Международная научная конференция «Язык и культура». – М.: Институт иностранных языков, 2003. – С. 261-262.
2. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. 2-е изд. – М.: Гнозис, 2004.– С.96
3. Риккерт Г. Науки о природе и науки о культуре: Пер. с нем./Общ. Ред. И предисл. А.Ф. Зотова – М.: Наука, 1998. – С. 32.
4. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М., 1996. – С.90-92.
5. Croft W. and D. Alan Cruse. Cognitive Linguistics. – New York: Published in the United States of America by Cambridge University Press, 2004 – P. 30.
6. George Lakoff and Mark Johnson. Metaphors we live by. – London: The university of Chicago press, 2003. – P.38
7. Насруллаева Н. З. Инглиз тили фразеологик бирликлар семантикасидаги гендер концепцияси. Филология фанлари докторлик диссертацияси. Тошкент, 2016. – 230 б.
8. Тошева Д.А Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. Тошкент, 2017. – 151 б.